BOSHLANG'ICH SINFLARDA SO'ZNING MORFEMIK TARKIBINI O'RGANISH METODIKASI

Jo'rayeva Aziza Raxmatovna
Qo'qon universiteti
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi
4-kurs talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada morfemika nimaligi, morfemikaning turlari asos morfema, affiksal morfema haqida ma'lumotlar berilgan. Morfemikani o'quvchilarga o'rgatish metodikasi bilan ham tanishishingiz mumkin.*

Kalit so'zlar: *Asos morfema, affiks morfema, so'z yasovchi morfema, shakl yasovchi morfema.*

Morfema- so'zning eng kichik qismi bo'lib, bo'laklarga bo'linmaydigan ma'noli qismiga aytiladi. Morfema 2 turga bo'linadi. Ular o'zak morfema ya'ni asos va affiksal morfema qo'shimchalar.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar morfemikani o'rganishlari juda muhim chunki, ular morfemikani o'rganishlari bilan birgalikda o'quvchilar so'zlarni asos va qo'shimchaga ajratish orqali so'zlar qaysi so'z turkumiga oidligini bilishlari oson bo'ladi. Boshlang'ich sinflarda ona tili darsligida so'zning morfemik tarkibini o'rganish metodikasi 3 - sinfda o'quvchilarga o'rgatilib boriladi. Boshlang'ich sinfning oxirgi ya'ni 4 - sinfda morfemika o'quvchilarga yana mustahkamlanishi uchun mustaqil so'z turkumlari bilan birga o'rgatiladi.

O'zak morfema bu asos bo'lib so'zning doimo boshida bo'ladi, qatnashadi va leksik ma'no ham albatta anglatadigan morfema.

Masalan: kitobxonlik, suvchi, mehnatsevar, guldon, soatsoz, to'plam, suzma so'zlarida kitob -asos morfema, suv-asos morfema, mehnat - asos morfema, gul - asos morfema, soat- asos morfema, to'p - asos morfema, suz - asos morfema hisoblanadi.

Morfemalarning qo’shilishi bir-biriga ta’sir qiladi, bundan tashqari, ko’pgina o’zak va so’z yasovchi qo’shimchalar ko’p ma’noli. Shunga qaramay, ko’p so’zlarning leksik ma’nosini uning morfemik tarkibiga qarab aniqlash qiyin, bu maqsadda so’zni morfemalarga ajratishdan foydalanishga to’g’ri keladi.

O’quvchilar so’zning morfemik tarkibini va so’z yasalishini o’rganishlariga qarab, so’zni morfemalarga ajratishdan ongli foydalana boshlaydilar. Ular yasama so’zlarning leksik ma’nosini so’zlarning semantik o’xshashligiga qarab bilib oladilar.

Affiksal morfema – mustaqil holda leksik ma’no anglatmay, so’zning leksik va grammatik ma’nolari shakllanishi uchun xizmat qiladigan morfema.

Masalan: Suvsa, mardlarcha, sana, stollarni, gulla, ruchkani, suhbatlar, oilada kabi so'zlarda

Suv - asos morfema, sa- affiks morfema

Mard-asos morfema, larcha-affiks morfema
Son -asos morfema, a- affiks morfema
Stol-asos morfema, lar- affiks morfema
Gul- asos morfema, la- affiks morfema
Ruchka-asos morfema, ni-affiks morfema
Suhbat-asos morfema, lar-affiks morfema
Oila-asos morfema, da- affiks morfema hisoblanadi.

Affiks qo'shimchalar ham o'z ichida 2 turga bo'linadi ular so'z yasovchi qo'shimcha, shakl yasovchi qo'shimchalar.

So'z yasovchi qo'shimchalar o'zak morfemaning leksik ma'nosini shakllantirish uchun xizmat qiladi. So'z yasovchi qo'shimchalar: li, loq, la, sa, ser, chi, va boshqalar kiradi.

Shakl yasovchi qo'shimchalar- bu qo'shimchalar so'zlarni gramatik jihatdan shakllantirib, unga turli grammatik ma'nolarni yuklaydi. Masalan: Gullarimizni so'zida lar, imiz, ni shakl yasovchi qo'shimchalar bo'lib, lar ko'plik ma'nosini, imiz egalikning I shaxs ko'plik ma'nosini, ni tushum kelishigini ma'nosini bildiradi.

O'quvchilarga morfemikani o'rgatishning bir qancha metodikasi bo'lib. Buni o'qituvchi o'z usulidan kelib chiqgan holda o'rgatishi mumkin, qanday o'rgatish esa o'qituvchining o'ziga bog'liq. Avvallo o'qituvchi asos morfemani tushuntiradi, keyin affiksal morfemani o'rgatadi. Keyin turli mashqlar orqali o'quvchilarning bilimlarini sinab ko'radi. Doskaga 4 ta varoq yopishtirilib, o'qituvchi 2 ta varoqga asos morfema va affiks morfemalar aralashtirib yozib chiqadi. Ikkita bo'sh varoqga esa o'quvchilardan tashkil topgan guruh jamoasi birinchi varoqga asos morfemani, ikkinchi guruh esa varoqga affiks morfemalarni topib yozishi kerak bo'ladi.

So’zning morfemik tarkibi ustida ishlash bilan o’quvchilar so’zning leksik ma’nosini aniqlashning asosiy usullaridan birini bilib oladilar. So’z yasalishi haqidagi elementar bilim ham o’quvchilarning tilimizning yangi so’zlar bilan boyishining asosiy manbasini tushunishlari uchun muhimdir. Yangi so’z tilda mavjud bo’lgan morfemalardan, ma’lum usul va modellar asosida vujudga keladi (yasaladi). So’z yasalishini kuzatish o’quvchilarda so’zga faol munosabatni shakllantirishga ijobiy ta’sir etadi, tilning rivojlanish qonuniyatlarini tushunishga olib keladi. So’z yasalishi asoslari bilan tanishish o’quvchilar lug’atini atrof-muhit haqidagi bilimlar bilan boyitishga imkon beradi. Predmet, jarayon, voqea-[62]hodisalar haqidagi tushunchalar so’z bilan ifodalanadi. So’zlar o’rtasidagi ma’no va tuzilish jihatidan bog’lanishni belgilash o’zaro munosabatda bo’lgan tushunchalar o’rtasidagi bog’lanishga tayanadi (masalan, traktor va traktorchi so’zlari o’zaro munosabatda bo’lgan tushunchalar, shu tufayli ma’no va tuzilishiga ko’ra bog’langan).

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinflarda so'zning morfemik tarkibini, so'z yasalishini o'rganish o'quvchilarda so'zlarni asta-sekinlik bilan o'rganishga yordam beradi.

Boshlang'ich sinfda o'quvchilar morfemikani o'rganish orqali mustaqil so'z turkumlarini o'zlashtirishlari oson bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karima Qosimova, Safo Matchonov, Xolida G'ulomova, Sharofat Yo'ldosheva, Sharofjon Sariyev, Ona tili o'qitish metodikasi " Toshkent" Nosir" nashriyoti- 2009 233- bet.

2. "Ona tili" fanidan 3-sinf darsligi.S.Fuzailov, M.Xudoyberganova, Sh.Yo'ldosheva 61-bet.

3.Arxiv.uz /Internet ma'lumotlari asosida.

4.https://muhaz.org